

TARJIMADA MADANIY SO‘ZLAR VA ULARNI TARJIMA QILISH

Nishonboyeva Farangiz Yardam qizi

Namangan davlat chet tillari instituti

nishonboyevafarangiz31@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimada madaniy so‘zlar (realiyalar) tushunchasi, ularning asosiy turlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar keng yoritilgan. Madaniy birliklarning ekvivalentga ega emasligi, milliy-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish zarurati tarjimon oldida muhim vazifalarni qo‘yadi. Maqolada madaniy so‘zlarni tarjima qilishning transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional ekvivalent, adaptatsiya, so‘zma-so‘z tarjima va izoh bilan berish kabi asosiy usullari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: madaniy so‘zlar, realiyalar, tarjima, tarjima usullari, madaniyatlararo kommunikatsiya, lakuna, ekvivalentlik, adaptatsiya, milliy madaniyat, tarjimon kompetensiyasi

Annotation: This article examines the concept of cultural words (realia) in translation, their main types, and the challenges encountered in the translation process. The lack of direct equivalents and the necessity of preserving national and cultural characteristics pose significant difficulties for translators. The study analyzes major methods of translating cultural words, including transliteration, descriptive translation, functional equivalence, adaptation, literal translation, and the use of explanatory notes, based on scholarly sources. The findings of the research contribute to the fields of translation studies and intercultural communication.

Keywords: cultural words, realia, translation, translation methods, intercultural communication, lacuna, equivalence, adaptation, national culture, translator competence

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие культурных слов (реалий) в переводе, их основные виды, а также проблемы, возникающие в процессе перевода. Отсутствие прямых эквивалентов и необходимость сохранения национально-культурных особенностей представляют значительные трудности для переводчика. В статье анализируются основные способы перевода культурных слов, такие как транслитерация, описательный перевод, функциональный эквивалент, адаптация, дословный перевод и использование пояснительных примечаний на основе научных источников. Результаты исследования имеют практическое значение для переводоведения и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: культурные слова, реалии, перевод, способы перевода, межкультурная коммуникация, лакуна, эквивалентность, адаптация, национальная культура, переводческая компетенция .

KIRISH

Tarjima jarayoni oddiy til birliklarini bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirish bilangina cheklanmaydi. U xalqlarning madaniyati, tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois tarjimada madaniy so‘zlar muhim o‘rin tutadi. Madaniy so‘zlar orqali milliy madaniyatning o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi va ular tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi. Ushbu maqolada madaniy so‘zlar, realiyalar, lakuna, ekvivalentlik, adaptatsiya kabi asosiy tushunchalar keng ma‘noda yoritilib, ularning tarjima jarayonidagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi.

Madaniy so‘zlar va realiyalar tushunchasi:

Madaniy so‘zlar muayyan xalqning urf-odati, an‘analari, turmush tarzi, diniy qarashlari va tarixiy rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan til birliklaridir. Bunday so‘zlar milliy madaniyat mahsuli bo‘lib, boshqa tillarda ko‘pincha to‘liq va aniq muqobilga ega bo‘lmaydi. Shu jihatdan ular tarjimada alohida e‘tibor talab qiladi. Madaniy so‘zlarning muhim turi sifatida realiyalar tushunchasi qo‘llaniladi. Realiyalar ma‘lum bir millat yoki madaniyatga xos bo‘lgan predmetlar, hodisalar, ijtimoiy institutlar va tarixiy tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, milliy kiyimlar, an‘anaviy taomlar, bayramlar, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq atamalar realiyalar jumlasiga kiradi. Realiyalar tarjimasida asosiy muammo — ularning boshqa madaniyatda mavjud emasligidir.

Tarjima va tarjima usullari:

Tarjima — bir tilda yaratilgan matn mazmunini, maqsadini va funksiyasini saqlagan holda boshqa til vositalari orqali qayta ifodalash jarayonidir. Tarjima faqat lingvistik emas, balki madaniy hodisa hamdir. Shu sababli tarjimon nafaqat tilni, balki madaniyatni ham chuqur bilishi lozim. Bundan tashqari, tarjimon bir davlat madaniyati ikkinchi davlat madaniyatiga moslab tarjima qilishi kerak. Bunga yaqqol misol, J.B. Casagandre tarjimaga shunday ta‘rif beradi "So‘z emas, balki madaniyatlar tarjima qilinadi" - deya. Demak tarjimon yuqorida qayd etilganidek tarjima jarayonini amalga oshiradi.

Tarjima jarayonida qo‘llaniladigan tarjima usullari asl matn mazmunini qabul qiluvchi tilga mos tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Madaniy so‘zlar tarjimasida transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional ekvivalent, so‘zma-so‘z tarjima, izoh bilan berish va adaptatsiya kabi usullar keng qo‘llaniladi. Har bir usul matn turi va o‘quvchi auditoriyasiga qarab tanlanadi va shu usulda tarjima jarayoni amalga oshiriladi.

Madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima:

Tarjima jarayoni madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim shakllaridan biridir. Turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqotda madaniy tafovutlar tushunmovchilikka sabab bo‘lishi mumkin. Tarjima ana shu tafovutlarni kamaytirish, madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Madaniy so‘zlarning to‘g‘ri tarjima qilinishi madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshiradi.

Lakuna va ekvivalentlik masalasi:

Tarjimada tez-tez uchraydigan muammolardan biri lakuna hodisasidir. Lakuna bir tilda mavjud bo'lgan tushuncha yoki so'zning boshqa tilda mavjud emasligi bilan izohlanadi ya'ni lakunaga shunday ta'rif berish mumkin "Lakuna-bu bir bo'shliq". Ayniqsa, madaniy so'zlar lakuna holatini keltirib chiqaradi. Bunga sabab, madaniy tafovutlardir, chunki bitta madaniy tushunchaga turli davlatlar turlicha qaraydi.

Lakuna bilan chambarchas bog'liq tushuncha bu — ekvivalentlikdir. Ekvivalentlik tarjimada asl matn va tarjima matni o'rtasidagi mazmuniy va funksional moslik darajasini bildiradi. Madaniy so'zlarda to'liq ekvivalentlik kam uchraydi, shuning uchun tarjimon qisman yoki funksional ekvivalentlikka erishishga intiladi. Bu esa o'z o'rnida tarjimaning yanada osonroq tushunilishi ta'minlaydi.

Adaptatsiya va milliy madaniyatni saqlash:

Madaniy so'zlar tarjimasida muhim usullardan biri adaptatsiya hisoblanadi. Adaptatsiya jarayonida madaniy birliklar qabul qiluvchi til va madaniyatga moslashtiriladi. Bunda tarjimon milliy madaniyatning asosiy mazmunini saqlagan holda uni o'quvchi uchun tushunarli shaklda ifodalaydi. Milliy madaniyat tarjimada saqlanishi zarur bo'lgan asosiy omillardan biridir. Agar madaniy so'zlar noto'g'ri yoki haddan tashqari soddalashtirib tarjima qilinsa, matn o'z milliy rangini yo'qotadi. Shu sababli tarjimon milliy madaniyat elementlarini imkon qadar saqlab qolishga intilishi lozim.

Tarjimon kompetensiyasi; Madaniy so'zlarni muvaffaqiyatli tarjima qilish tarjimon kompetensiyasiga bevosita bog'liq. Tarjimon kompetensiyasi til bilimi, madaniy bilim, kommunikativ malaka va professional tajribani o'z ichiga oladi. Yuqori darajadagi kompetensiyaga ega tarjimon madaniy so'zlarning mazmunini to'g'ri anglaydi va ularni mos tarjima usuli orqali yetkazadi.

1. Transliteratsiya va transkripsiya: Bu usulda madaniy so'z asl tilidagi shakliga yaqin holda tarjima tiliga ko'chiriladi. Asosan milliy nomlar, kiyimlar, taomlar va bayramlar tarjimasida qo'llaniladi. Masalan, kimono, sari, Naro'z. Bu usul milliy rangni saqlab qoladi, biroq o'quvchi uchun tushunish qiyin bo'lishi mumkin.

2. Tavsifiy (izohli) tarjima. Mazkur usulda madaniy so'zning ma'nosi qisqa tavsif yoki izoh orqali tushuntirib beriladi. Masalan, Navro'z — bahorning kirib kelishini nishonlaydigan milliy bayram. Ushbu usul ma'noni to'liq ochib beradi, ammo matn hajmining kengayishiga olib keladi.

3. Funksional ekvivalent orqali tarjima. Bu usulda tarjima tilida vazifasi va mazmuni jihatidan o'xshash bo'lgan birlik tanlanadi. Masalan, mahalla — local community.

Usul o'quvchi uchun tushunarli bo'lsa-da, milliy xususiyat qisman yo'qoladi

4. So'zma-so'z tarjima (kalka). So'zning tarkibiy qismlari alohida-alohida tarjima qilinadi. Masalan, White House — Oq uy. Bu usul faqat ayrim hollarda muvaffaqiyatli bo'ladi, chunki barcha madaniy so'zlar so'zma-so'z tarjimaga mos kelavermaydi.

5. Adaptatsiya (moslashtirish). Adaptatsiya usulida madaniy birlik qabul qiluvchi madaniyatga moslashtiriladi. Tarjimon o'quvchiga tushunarli bo'lgan umumiy tushunchani tanlaydi.

Masalan, sumalak — traditional sweet dish. Bu usul kommunikativ qulaylikni ta'minlaydi, ammo milliy rang kamayadi.

6. Izoh bilan berish (footnote yoki sharh). Madaniy so'z asl holicha qoldirilib, unga izoh yoki sharh beriladi. Ushbu usul ilmiy va badiiy tarjimalarda keng qo'llaniladi.

Bu usul milliy madaniyatni saqlagan holda tushunishni osonlashtiradi. Masalan, Korea xalqi uchun u xalq ayollarining chiroyini ta'riflash uchun aynan bir jihatini ya'ni ularning ko'zini oladigan bo'lsak, ularning madaniyatida ko'zlarni qurbaqaning ko'ziga qiyoslash ular uchun maqtovdur. Shuning uchun tarjimon, bunday holatlarda ularning madaniyatini hurmat qilgan holda va oson tushuntirish uchun izohlab ketishi kerak. Chunki bu ta'rif qaysidir bir xalq uchun salbiy ma'noda tushuniladi.

7. Kombinatsiyalashgan usul; Ba'zi hollarda tarjimon bir nechta usulni birgalikda qo'llaydi, masalan, transliteratsiya va izohni birlashtiradi. Bu usul murakkab madaniy so'zlarni tarjima qilishda samarali hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, madaniy so'zlar tarjimasi tarjimashunoslikdagi eng murakkab va mas'uliyatli masalalardan biri hisoblanadi. Bunday so'zlar xalqning milliy madaniyati, tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotini o'zida mujassam etgani sababli ularni tarjima qilish jarayonida faqat lingvistik emas, balki madaniy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy so'zlarning ko'pchiligi boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega emasligi tufayli tarjimon turli tarjima usullaridan oqilona foydalanishi zarur. Tarjima jarayonida transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional ekvivalent, adaptatsiya, so'zma-so'z tarjima va izoh bilan berish kabi usullar madaniy birliklarning mazmunini yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu usullarning to'g'ri tanlanishi matnning janri, maqsadi va o'quvchi auditoriyasiga bog'liqdir. Eng muhimi, tarjimada milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlarini saqlab qolish bilan birga, qabul qiluvchi madaniyat vakillari uchun tushunarli va tabiiy matn yaratishdir. Shunday qilib, madaniy so'zlarni muvaffaqiyatli tarjima qilish tarjimonning yuqori darajadagi lingvistik va madaniy kompetensiyasini talab etadi. To'g'ri amalga oshirilgan tarjima nafaqat matn mazmunini to'liq yetkazadi, balki madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga, xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

Tarjimaning nazariy asoslari, tarjima usullari va realiyalar bilan ishlash metodlari haqida klassik manba.



2. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge. Tarjima jarayonida lingvistik va madaniy tafovutlar, lakuna va ekvivalentlik masalalari.

3. Vlahov, S., Florin, S. (1970). Translation Studies. Moscow: Nauka. Tarjimaning ilmiy nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida realiyalar bilan ishlash.

4. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins.

Tarjima strategiyalari va kompensatsiya usullari, madaniyatlararo xususiyatlarni saqlash.

5. House, J. (2015). Translation Quality Assessment. Routledge. Tarjima sifatini baholash va madaniy elementlarni samarali yetkazish metodikasi.